

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning 1-oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 559,9 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 22,3 ming kishiga yoki 1,5 % ga ko'paydi. Shundan, 733,5 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 47,0 %) va 826,4 ming kishi – qishloq joylarida (53,0 %) istiqomat qiladi.

### Jizzax viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2025-yilning 1- oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 559,9</b>	<b>733,5</b>	<b>826,4</b>	<b>101,9</b>	<b>102,1</b>	<b>101,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shahar:</i>									
Jizzax	202,6	202,6	-	101,8	101,8	-	13,0	27,6	-
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	50,0	17,2	32,8	101,4	101,3	101,4	3,2	2,4	4,0
Baxmal	177,0	49,0	128,0	102,1	102,5	101,9	11,3	6,7	15,5
G'allaorol	193,4	67,0	126,4	101,9	101,6	102,2	12,4	9,1	15,3
Sharof Rashidov	253,7	101,4	152,3	102,6	102,9	102,3	16,3	13,8	18,4
Do'stlik	71,6	30,1	41,5	101,2	101,0	101,4	4,6	4,1	5,0
Zomin	187	90,3	96,7	102,3	104,1	100,5	12,0	12,3	11,7
Zarbdor	97,9	54,2	43,7	102,0	102,0	101,8	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	55,2	25,1	30,1	101,7	101,6	101,7	3,5	3,4	3,6
Mirzacho'l	56,9	31,8	25,1	101,4	101,3	101,5	3,6	4,3	3,0
Paxtakor	83,4	40,0	43,4	101,7	101,4	102,0	5,3	5,5	5,3
Forish	100,7	18,5	82,2	101,3	100,8	101,4	6,5	2,5	10,0
Yangiobod	30,5	6,3	24,2	101,3	100,1	101,6	2,0	0,9	2,9

## Doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2025- yilning 1-oktabr holatiga)

### Doimiy aholi soni

1 559,9

ming kishi

### Tabiiy o'sish

+23,8

ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar



47,0 %

#### Qishloq



53,0 %



### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

#### Erkaklar

50,5%

787,4

ming kishi

#### Ayollar

49,5%

772,5

ming kishi



2025- yilning 1-oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 559,9 ming kishini tashkil etib, shundan, erkaklar 787,4 ming kishini (jami aholi sonining 50,5 %) va ayollar 772,5 ming kishi (49,5 %) ni tashkil qildi.

## Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da (2025- yil 1-oktabr xolatiga)

### Jizzax viloyati

**1 499,6** ming kishi

2023-yil yanvar- sentabr



**1 530,3** ming kishi

2024-yil yanvar- sentabr

**1 559,9** ming kishi

2025-yil yanvar- sentabr

Joriy yilning 1-oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 559,9 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 22,3 ming kishiga yoki 1,5 % ga ko'paydi. Shundan, 733,5 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 47,0 %) va 826,4 ming kishi – qishloq joylarida (53,0 %) istiqomat qiladi.




## Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
Tug'ilganlar	29 422	28 484	25,9	24,6
Vafot etganlar	4 781	4 710	4,2	4,1
<i>shu jumladan:</i>				
Nikohlar	7 554	7 570	6,6	6,5
Ajralishlar	1 280	1 389	1,1	1,2

**Tug'ilish.** 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 28 484 kishini tashkil etdi va 2024- yilning shu davriga (29 422 kishi) nisbatan 938 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 24,6 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Arnasoyda (23,1 promilledan 20,3 promillegacha), Do'stlikda (22,2 promilledan 19,7 promillegacha), Yangiobodda (20,8 promilledan 18,4 promillegacha) Sh.Rashidovda (28,9 promilledan 27,0 promillegacha), tumanlarida kuzatildi.


**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti**  
2025- yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



## Yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
Tug'ilganlar	29 422	28 484	25,9	24,6

### Jizzax viloyati hududlari bo'yicha tug'ilganlar 2025- yil yanvar-sentabr holatig





## Yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
Vafot etganlar	4 781	4 710	4,2	4,1


### Jizzax viloyati hududlari bo'yicha vafot etganlar 2025- yil yanvar-sentabr holatig

Hududlar bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti, kishi	Vafot etganlar koeffitsiyenti yuqori bo'lgan hududlar
--	---



Vafot etganlar koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan tumanlar Jizzax shahri 4,4 % ga, Zarbdor 4,3 % ga, Baxmal tumanlarida 4,2 % ni qayt etilgan.

#### Vafot etganlar koeffitsiyenti past bo'lgan hududlar




Vafot etganlar koeffitsiyenti past bo'lgan tumanlar Mirzacho'l 2,9 % ga, Arnasoy 3,2 % ga, Sh.Rashidov tumanlarida 3,8 % ni qayt etilgan.

**O'lim.** 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 4 710 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (4 781 kishi) nisbatan 71 kishiga kamaydi, mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil qildi (2024- yil yanvar- sentabr 4,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Mirzacho'l (3,9 dan 2,9 promillegacha) Yangiobod (5,0 dan 4,2 promillegacha), G'allaorol (4,9 dan 4,4 promillegacha) hissasiga to'g'ri keladi.

O'lim darajasining o'sish ko'rsatkichi Zarbdor (3,7 dan 4,3 promille) tumani hissasiga to'g'ri keldi.


**Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti**  
2025- yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



O'lganlar umumiy sonidan 54,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,6 %i – o'sma kasalliklaridan, 8,0 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohlardan, 4,9 %i – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 7,7 %i – nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,3 %i – infeksiyon va parazitlar kasalliklaridan, 15,3 %i – boshqa kasalliklardan vafot etgan.


## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 7 570 ta nikohlar va 1 389 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 ni (2024- yilning yanvar-sentabrda 6,6 bo'lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 ni (2024- yilning yanvar-sentabrda 1,1 bo'lgan) tashkil etgan.

**2025 -yilning yanvar-sentabr oyida viloyat bo'yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti**





Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2024- yilning mos davriga nisbatan hududlarda kamayish kuzatilgan. Bunda eng yuqori kamayish sur'ati Paxtakor (0,8 %) va Forish (0,6 %) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlarda yanvar- sentabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>7 554</b>	<b>7 570</b>	<b>1 280</b>	<b>1 389</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 070	994	254	219
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	197	187	35	51
Baxmal	944	964	109	130
G'allaorol	1 006	1 012	180	179
Sharof Rashidov	1 231	1 399	186	192
Do'stlik	276	271	40	65
Zomin	916	916	152	161
Zarbdor	425	415	74	83
Zafarobod	210	254	41	54
Mirzacho'l	222	192	58	51
Paxtakor	415	375	76	92
Forish	498	454	56	78
Yangiobod	144	137	19	34

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti  
(2025- yil yanvar-sentabr)**



Ajrimlar sonida 2024- yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatildi.

Nisbatan yuqori kamayishlar soni Mirzacho'l (0,2 taga) tumanida kuzatildi.

## Yanvar- sentabr oylarida aholining tabiiy o‘shish soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	Kishi soni		1 000 aholiga nisbatan	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>24 641</b>	<b>23 774</b>	<b>21,7</b>	<b>20,5</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	2 596	2 530	17,6	16,8
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	730	635	19,9	17,1
Baxmal	3 237	3 194	25,2	24,3
G‘allaorol	3 283	3 255	23,3	22,7
Sharof Rashidov	4 595	4 362	25,0	23,2
Do‘stlik	977	840	18,6	15,8
Zomin	3 277	3 101	24,2	22,4
Zarbdor	1 615	1 477	22,7	20,3
Zafarobod	775	727	19,1	17,2
Mirzacho‘l	660	793	15,8	19,3
Paxtakor	1 201	1 189	19,7	19,1
Forish	1 340	1 350	18,1	18,0
Yangiobod	355	321	15,8	14,2

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 817 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 255 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 438 kishini tashkil etgan, 2024- yilning mos davrida minus 1 749 kishi bo'lgan.

### Yanvar- sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5 628</b>	<b>6 817</b>	<b>7 377</b>	<b>8 255</b>	<b>-1 749</b>	<b>-1 438</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 712	1 694	1 140	1 546	572	148
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	176	178	306	305	-130	-127
Baxmal	378	367	806	794	-428	-427
G'allaorol	254	317	708	724	-454	-407
Sharof Rashidov	712	1 655	1 069	1 186	-357	469
Do'stlik	260	311	478	495	-218	-184
Zomin	565	636	541	647	24	-11
Zarbdor	207	385	433	443	-226	-58
Zafarobod	139	205	280	344	-141	-139
Mirzacho'l	471	359	404	473	67	-114
Paxtakor	385	359	488	520	-103	-161
Forish	230	178	520	549	-290	-371
Yangiobod	139	173	204	229	-65	-56

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 427 kishi) G'allaorol (minus 407 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Sh.Rashidov (469 kishi) kuzatildi.